



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o'zgarishlar va ularning tahlili, so'z asosida yuz beradigan o'zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq janitpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalarida o'zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba'zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o'zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo'llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko'chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po'ltan shoir ijrosidagi "Gulnor pari" dostonining morfologik xususiyatlari (bulung'ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o'zbeklar shevasi o'rganilishining dolzarbligi	373

4-O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O'RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo'shiqlarda an'anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, "Alpomish" dostonida islomiy-ma'rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O'zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO'XTAQULOVA, Xalq qo'shiqlari matnida "ko'z" bilan bog'liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an'ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O'zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

ESKIRGAN ATOV BIRLIKLARNING YANGI O'ZLASHMA VA
NEOLOGIZMLAR BILAN ALMASHINUVI

REPLACEMENT OF OBSOLETE ATAVISTIC UNITS WITH NEW
BORROWINGS AND NEOLOGISMS

Umida USMONOVA,

Toshkent xalqaro moliyavi boshqaruv va
texnologiyalar universiteti,

Xorijiy filologiya kafedrasi o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MMXY8686

Annotation. *The article studies the process of terminological substitution in the lexicon of the Uzbek language in the period 1990–2024. In the context of socio-political and cultural changes after independence, the institutional lexicon of the Soviet era (collective farm, state farm, pioneer, Komsomol, district committee, police, etc.) is rapidly becoming obsolete, and new Uzbek and Uzbek neologisms (farm, Youth Union, police, governor, academic lyceum, cluster, etc.) are considered. The article theoretically defines terminological substitution, determines its place in lexicology and lexicography, and distinguishes the following three main models:*

1. *formal-substitutional;*
2. *moral-substitutional;*
3. *functional-substitutional models.*

At the same time, practical manifestations of exchange are analyzed on the example of education, agriculture, public administration, youth policy, educational-ideological and household-cultural spheres. Such transitional cases as parallel use, stylistic stratification, spiritual specialization and metaphorical reactivation are shown. As a result of the research, it is proved that terminological substitution is not only the passivation of obsolete units, but also the systematic restructuring of the language vocabulary, the formation of new conceptual fields and the acquisition of new functional load of old names in artistic-historical styles.

Key words: *terminological substitution, obsolete lexicon, neologisms, appropriations, Uzbek language lexicon, period of independence, archaization, stylistic redistribution.*

1990–2024-yillar davrida o'zbek tili leksikasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar fonida bir tomondan eski atamalar tez sur'at bilan eskirsa, ikkinchi tomondan yangi o'zlashmalar va neologizmlar ularning semantik maydonini egallab boradi. Bu hodisa terminologik substitutsiya deb ataladi va u til tizimida eski va yangi nomlarning raqobati, sinonimik qatorlar ichidagi kuchlar muvozanati, uslublararo qayta taqsimlanish bilan chambarchas bog'liqdir.

Umumiy leksikologik adabiyotlarda so'zlarning “zamoniyligi” masalasi odatda uch komponent bilan bog'lanadi: eskirgan leksika (arxaizmlar va istorizmlar), neologizmlar

va faol zamonaviy qatlam. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Fonetika, leksikologiya, morfologiya” kitobida lug‘aviy birliklarning zamoniyligi til taraqqiyotining tabiiy ko‘rinishi sifatida talqin qilinib, otlarning boshqa so‘z turkumlariga nisbatan “yangi so‘zlar bilan tez va uzluksiz boyib borishi” alohida ta’kidlanadi; bu jarayon morfologik va leksik-semantik usullar bilan bir qatorda so‘zlarning o‘zlashmasi hisobiga ham sodir bo‘lishi qayd etiladi [Tursunov va boshq., 1975].

Aynan mana shu leksik tizim ichida terminologik substitutsiya, ya’ni ma’lum bir tushunchani ifodalovchi eski atamaning o‘rnini yangi neologizm egallashi alohida hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, *pioner* → *O‘zbekiston yoshlar ittifoqi a‘zosi*, *kolxoz/sovxoz* → *fermer xo‘jaligi* kabilar. Bunday almashish jarayoni leksik tizimda eski va yangi nomlarning paradigmatic munosabatini ko‘rsatadi.

A.Hojiyev “Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili lug‘at tarkibining rivojlanish asoslari” nomli maqolasida mustaqillikdan keyingi davr leksikasini tavsiflar ekan, bir vaqtning o‘zida “yangi leksik qatlamlarning shakllanishi bilan bir qatorda, bir paytlar faol bo‘lgan ba’zi birliklarning iste’moldan chiqib borishi”ni til taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholaydi [Hojiyev 1994]. Shu o‘rinda muallif lug‘at tarkibidagi yangilanishni tilning yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitga moslashuvi bilan bog‘laydi. Ayni ushbu moslashuv aynan terminologik substitutsiya orqali ro‘y beradi.

Sh. Rahmatullayev, R. Sayfullayeva, H. Jamolxonov kabi olimlarning leksikologiya bo‘yicha darsliklarida leksik qatlam an‘anaviy ravishda faol leksika, nafaol leksika (eskirgan so‘zlar va tarixiy so‘zlar) hamda neologizmlar tarzida uch bo‘limda ko‘rsatiladi; bunda eskirgan qatlam “tilning tarixiy xotirasini saqlovchi qatlam” sifatida, neologizmlar esa “jamiyat taraqqiyotining til tizimidagi aks-sadosi” sifatida talqin qilinadi [Sayfullayeva R. va boshq.2009].

“Terminologik substitutsiya – ilmiy matnda bir tushunchaning mantiqiy-semantik jihatdan teng bo‘lgan boshqa terminologik yoki umumiste’mol birliklar orqali ifodalanishi hodisasidir” [Жавкина 2004]. Leksikografik adabiyotlarda [Hartmann 1998] esa terminologik substitutsiya odatda ikki qatlam eskirgan birlik (obsolete entry) va uning zamonaviy muqobili (current equivalent) o‘rtasidagi munosabat sifatida ko‘riladi. Bunday munosabatni belgilashda tarixiylikni ko‘rsatuvchi pometalor “avvalgi qo‘llanish” (“old use”), “tarixiy” (“historical”), “arxaik” (“arch.”) kabilar, shuningdek, “qarang” (“see also”) yoki “hozirgi” (“now replaced by”) singari havolalar orqali lug‘at foydalanuvchisiga eskirgan birlikning leksik tizimdagi yangi o‘rnini ko‘rsatish zarurligi uqtiriladi. “Terminologiyada bir tushunchani ifoda etish uchun turli terminlarning qo‘llanishi – terminlar sinonimiyasi salbiy holat hisoblanadi [Hartmann, James, 2008]”. Bundan anglashiladiki, terminologik sinonimiya va variantlilikni tartibga solish leksikografik tavsifning asosiy shartlaridan biridir.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda nazariy jihatdan terminologik substitutsiyani quyidagicha ta’riflash mumkin: terminologik substitutsiya – bu tilda ma’lum konseptual sohani ifodalovchi eskirgan atamaning ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy yoki madaniy o‘zgarishlar natijasida yangi o‘zbekcha yoki o‘zlashma neologizm bilan almashishi, tarixiy yoki uslubiy qatlamga o‘tishi jarayonidir.

O‘zbek tili materiali asosida terminologik substitutsiyaning quyidagi uch asosiy modelini ajratish mumkin:

1. Shakliy-substitutsion model – eski tushuncha saqlanadi, lekin nomi o‘zgaradi. Masalan, sobiq “kolxoz” va “sovxoz”larda amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligi faoliyati bugungi kunda “fermer xo‘jaligi”, “dehqon xo‘jaligi”, “klaster” kabi yangi nomlar bilan ataladi. Konsept – “qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish” tushunchasi o‘zgarmaydi, lekin institutsional shakl va nom yangilanadi. Bu jarayon sobiq sho‘ro davri institutsional leksikasining mustaqillik davrida tarixiylashishiga xizmat qilgan.

2. Ma'noviy-substitutsion model – qisman yangi konsept, ya'ni tushuncha paydo bo'ladi va eski nom ma'noning faqat bir qismini ifodalaydi yoki aksincha, konsept biroz kengayadi yoki torayadi. Masalan, *pioner* leksemasi sho'ro davrida aniq ijtimoiy institut – pionerlar tashkiloti a'zosi nomi bo'lgan bo'lsa, mustaqillik davrida yoshlar bilan ishlash tizimi qayta qurilishi natijasida “Kamolot”, “Yoshlar ittifoqi”, “Yoshlar ishlari agentligi” kabi tashkilot va nomlar paydo bo'ldi. Ularning vazifasi pioner tashkilotining ayrim jihatlarini takrorlasa-da, mafkuraviy va tashkiliy tuzilishi boshqacha, shuning uchun bu yerda “qisman vazifaviy o'xshashlik” asosida substitutsiya haqida so'z yuritish mumkin.

3. Vazifaviy-substitutsion model – eski atama rasmiy va me'yoriy diskursdan chiqib, badiiy, tarixiy, publitsistik uslubda uslubiy vosita sifatida saqlanib qoladi, nomlash vazifasi esa yangi birlikka o'tadi. Masalan, *komsomol*, *raykom*, *pioner*, *lager*, *vojat*, *profsoyuz* kabi birliklar hozirgi rasmiy va kundalik nutqda deyarli qo'llanmaydi, biroq badiiy va tarixiy matnlarda “davr ruhi”ni beruvchi uslubiy bo'yoq sifatida juda faol ishlatiladi [Madiyorova, Djumabayeva, 2023].

Bu uch model amalda ko'pincha bir-biri bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi: masalan, *militsiya* → *politsiya* juftligi bir tomondan shakliy-substitutsiya (tashqi shakl o'zgarishi), ikkinchi tomondan vazifaviy va uslubiy qayta taqsimlanish (*militsiya* – tarixiy-realistik matnlarda, *politsiya* – rasmiy-huquqiy diskursda)ni ifodalaydi.

1990–2024-yillar davri o'zbek tili leksikasida eskirish jarayoni keskin tezlashgan bosqich bo'lib, aynan sovet davri institutsional leksikasi (*partiya*, *komsomol*, *pioner*, *kolxoz*, *sovxoz*, *raykom*, *obkom*, *profsoyuz* va b.)ning nafaol qatlamga o'tishi bilan ajralib turadi. Bu jarayon bilan bir vaqtda, quyidagi yo'nalishlarda yangi neologizmlar va o'zlashmalar tizimi shakllandi:

Davlat boshqaruvi va siyosiy tuzum: *sovet*, *oliy kengash*, *xalq deputatlari kengashi*, *prezidium* kabi nomlarni *Oliy Majlis*, *Qonunchilik palatasi*, *Senat*, *mahalliy kengash* kabi yangi birliklar, shuningdek, *o'rinbosar* o'rniga *hokimiyat*, *hokim*, *hokim o'rinbosari* birliklari almashtirdi. Bu yerda eski atamalar ko'proq tarixiy-siyosiy matnlarga ko'chib, yangi nomlar me'yoriy-huquqiy leksikaning markaziy qismiga aylandi.

Yoshlar va jamoat tashkilotlari: *pioner*, *komsomol*, *VLKSM*, *pioner lageri* kabi nomlarning o'rnida dastlab *Kamolot*, keyin *O'zbekiston Yoshlar ittifoqi*, *Yoshlar ishlari agentligi*, *Barkamol avlod markazlari* kabi atamalar paydo bo'ldi. Shunday qilib, bir tarixiy davrga xos yoshlar tashkilotlari nomlari o'rnini yangi tuzilma, tashkilotlar nomlari egalladi; eskirgan nomlar esa badiiy matnda davrni aniqlovchi realiyalar sifatida qolmoqda.

Ma'rifiy-mafkuraviy qatlam: *marksizm-leninizm asoslari*, *partiya yig'ilishi*, *sotsialistik musobaqa*, *besh yillik reja*, *ideologik front* kabi sovetcha birliklar mustaqillik davrida *milliy istiqbol g'oyasi*, *ma'naviyat darsi*, *fuqarolik jamiyati*, *demokratik islohotlar* kabi nomlar bilan substitutsiya qilindi. Bu almashinuv mafkuraviy paradigmaning o'zgarishiga mos ravishda kechdi.

A. Hojiyev aynan shunday holatlarni tahlil qilarkan, mustaqillik davrida til lug'at tarkibiga kirib kelayotgan yangi qatlamlar va iste'moldan chiqayotgan eski so'zlar “o'zaro munosabatda, dialektik birlikda” kechayotganini alohida ta'kidlaydi [Hojiyev 1994]. Bu holat terminologik substitutsiyaning faqat “eskilikning yo'qolishi” emas, balki “tizimning qayta tuzilishi” ekanini ko'rsatadi.

Ot so'z turkumiga mansub, umumiste'mol xarakterga ega institutsional atamalar bilan bog'liq substitutsiya holatlarini quyida alohida tahlil qilishga harakat qilamiz.

a) Ta'lim va tarbiya sohasi

Sovet davridagi *xalq maorifi bo'limi*, *rayono*, *pedagogika texnikumi* kabi nomlar o'rnini mustaqillik davrida *xalq ta'limi bo'limi*, *pedagogika kolleji*, *akademik litsey*, *kasb-hunar kolleji*, keyinroq esa *kasb-hunar maktabi*, *professional ta'lim muassasasi* kabi nomlar egalladi. Bir vaqtlar umumiste'mol bo'lgan *leksiya*, *doklad*, *seminar* kabi birliklar ham til tizimida qisman eskirib, ularning yonida *ma'ruza*, *taqdimot*, *trening* kabi yangi birliklar faol qo'llanmoqda

[Sayfullayeva R. va boshq. 2009]. Natijada eski birliklar ko'p hollarda kitobiy yoki uslubiy cheklangan qatlamga surilmoqda.

b) Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot sohasi

Kolxoz, sovxoz, MTS, brigada kabi birliklar o'rnini *fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi (ma'lum bosqichda), klaster, aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat, xususiy korxona* kabi yangi birliklar egalladi.

d) Maishiy-madaniy soha

Maishiy texnika, matbuot va ommaviy madaniyat bilan bog'liq substitutsiya ham sezilarli: sovet davridagi *magnitofon, kinoapparat, kinozal, klub* kabi birliklar o'rnida hozir *audio pleer, kompyuter, kinoteatr, multimedia markazi, madaniyat markazi, media zali*, matbuot sohasida esa *gazeta, jurnal, radioeshittirish* yonida *onlayn nashr, internet portali, blog, podkast* kabi birliklar faol. Bu jarayonlar otlarning yangi so'zlar bilan tez va uzluksiz boyib borishini mustaqillik davri materialida yaqqol tasdiqlaydi.

Madaniyat va san'at sohasida esa eski nomlar (*kinoklub, qishloq klubi, "Gulxan", "Lenin yo'li"* singari gazeta nomlari) o'rniga yangi nomlar (*madaniyat va istirohat bog'i, yoshlar markazi*, turli yangi nashr nomlari) kirib kelgan; eski nomlar ko'pincha metaforik va tarixiy konnotatsiya bilan badiiy matnda saqlanmoqda [Yarashova, 2024].

Terminologik substitutsiya jarayoni har doim ham eski so'zning to'liq yo'qolishi bilan cheklanmaydi. Ko'pincha quyidagi o'tish holatlari kuzatiladi:

1. Paralel qo'llanish – ma'lum muddat davomida eski va yangi nom birga yashaydi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida *kolxoz – fermer xo'jaligi, sovet – kengash* nomlari rasmiy hujjatlarda ham, og'zaki nutqda ham muqobil, variant juftlik sifatida uchraydi.

2. Uslubiy tabaqalanish – eski nom badiiy, tarixiy uslubga ko'chadi, yangi nom esa rasmiy va betaraf uslubning me'yoriga aylanadi. Bu holat uslubiy-vazifaviy yondashuv doirasidagi tahlillar bilan mos tushadi; Yarashova (2023, 2024), Madiyorova va Djumabayeva (2023) ishlarida [Yarashova, 2023; Madiyorova, Djumabayeva, 2023] arxaizatsiya jarayoni aynan shunday uslubiy qayta taqsimlanish sifatida talqin qilingan.

3. Ma'naviy ixtisoslashuv – eski nom torroq, ko'proq terminologik yoki tarixiy ixtisoslashgan ma'noga ega bo'ladi, yangi nom esa umumiste'mol mazmunni egallaydi. Masalan, *pioner* leksemasi hozir ko'proq "tarixiy sovet tashkiloti a'zosi" ma'nosida, *yoshlar ittifoqi a'zosi* esa hozirgi ijtimoiy voqelikni nomlashda qo'llanadi.

4. Metaforik va intertekstual qayta faollashuv – ayrim eskirgan atamalar zamonaviy publitsistik matnda metaforik tarzda qayta ishlatiladi: masalan, ma'lum bir mafkuraviy kompaniyani "besh yillik reja bosqichiga o'xshash tadbir" deb baholash, ortiqcha byurokratiyani "raykom davridagidek tartib" bilan qiyoslash kabilar. Bu jarayonlar eskirgan atamalarning bugungi diskursdagi lingvokulturologik ma'lumot vazifasini ko'rsatadi.

N. Najmiddinova "chegaralangan leksemalar"ni tahlil qilar ekan, ma'lum birliklarning faqat ayrim nutq ko'rinishlari va uslublarda faol, boshqa qatlamlarda esa chegaralangan holda qo'llanishini ko'rsatadi; bu yondashuv eskirgan atama – yangi neologizm munosabati jarayonida ham muhim, chunki ko'p hollarda eski atama aynan "chegaralangan" uslubiy qatlamga suriladi [Najmiddinova, 2024; 144].

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, terminologik substitutsiyani eskirgan atamalarni aniqlash mezonlaridan biri sifatida qayd qilish mumkin. Ma'lum tarixiy davrga xos atama uchun hozirgi tilda vazifaviy jihatdan muqobil yangi birliklar tizimi shakllangan bo'lsa

(*pioner* → *yoshlar ittifoqi a'zosi*; *kolxoz* → *fermer xo'jaligi*; *profsoyuz* → *kasaba uyushmasi*; *lager* → *oromgoh / sog'lomlashtirish oromgohi* va b.), u holda eski atama lingvistik va sotsiolingvistik mezonlar kesishmasida eskirgan atama sifatida baholanishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1990–2024-yillar davrida o'zbek tilida eskirgan atamalar va neologizmlar o'rtasidagi munosabat terminologik substitutsiya jarayoni asosida kechmoqda. Bu jarayon til lug'at tarkibidagi tarixiy qatlam (sovet institutsional leksikasi)ni passivlashtiradi; uning o'rniga yangi davlat boshqaruvi, bozor iqtisodiyoti, ta'lim va madaniyat sohalariga oid o'zbekcha va o'zlashma neologizmlar tizimini shakllantiradi; eski atamalarni butunlay rad qilmaydi, balki ularni uslubiy jihatdan badiiy, tarixiy, publitsistik diskursda tarixiy davr ifodalovchisi sifatida qayta ixtisoslashtiradi; leksik tizimda shakliyl, ma'noviy va vazifaviy almashinish modellarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1994. – № 1.
2. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 240 b.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent, 2004. – 2-qism.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
5. Жавкина Е.Б. Вариативность термина и его субституция в научном русскоязычном и немецкоязычном тексте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екг, 2004. – 24 с. – С. 8.
6. Hartmann R.R., James G. Dictionary of Lexicography. – London; New York: Routledge, 1998;
7. Atkins B.T., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. – Oxford: Oxford University Press, 2008.
8. Yarashova N.J. Eskirgan so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari // Zamonaviy ilmfan va ta'lim istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 529.
9. Yarashova N.J. Tarixiy so'zlarning sotsiopragmatik tadqiqi (Navoiy romani asosida) // O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent, 2023. – B. 118–125.
10. Madiyorova V., Djumabayeva J. The phenomenon of archaization and its effect on the language // Foreign Linguistics and Linguodidactics. – 2023. – № 1(2). – B. 7–14.
11. Najmiddinova N.N. Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksemalarning uslubiy xususiyati // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Vol. 2, № 11. – B. 144–149.

